



**KARL GUSTAV YUNGNING NAZARYALARINI O'ZBEKISTON
KONTEKSTIGA MOSLASH**

Axmadjonova Shaxruza Jahongir qizi

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar universiteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi 3 bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Karl Gustav Yungning analitik psixologiya doirasidagi asosiy nazariyalari — arxetiplar, kollektiv ongsizlik, individuatsiya jarayoni, anima va animus, komplekslar, psixotiplar — O'zbekiston jamiyatining madaniy, ijtimoiy va psixologik konteksti bilan uyg'unlashtirilgan holda tahlil qilinadi. O'zbek oilasidagi ota-ona bilan bog'liq komplekslar, yoshlarning kasb tanlashdagi psixotipik muammolari, gender stereotiplari va madaniy bosimlar psixik o'sishga qanday ta'sir ko'rsatishi Yung nazariyasi asosida izohlanadi. Shuningdek, o'zlikni anglash va individuatsiya jarayoniga to'sqinlik qiluvchi mahalliy ijtimoiy normativlar tahlil qilinadi. Maqola Yung yondashuvini O'zbekiston sharoitida amaliy va nazariy jihatdan qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Arxetip, individuatsiya, komplekslar, psixotip, kollektiv ongsizlik, anima/animus, soya.

Kirish

Karl Gustav Yung inson psixikasini tahlil qilishda yangi yondashuv — analitik psixologiyani yaratgan shaxs sifatida tanilgan. Uning inson ruhiyati haqidagi qarashlari nafaqat individual psixologiya, balki madaniyatshunoslik, san'atshunoslik, mifologiya, dinshunoslik va antropologiya kabi ko'plab sohalarga ham ta'sir ko'rsatgan. Yung psixikaning chuqur qatlamlarini — kollektiv ongsizlik, arxetiplar, anima va animus, persona va soya, shuningdek, individuatsiya jarayoni orqali o'zlikni anglashga alohida urg'u bergan.

Ushbu maqola Yung nazariyalarining O'zbekiston madaniy va psixologik muhitiga qanday mos tushishini tahlil qilishga qaratilgan. Chunki har qanday psixologik nazariya uning vujudga kelgan kontekstidan tashqarida qo'llanilganda, u mahalliy madaniy, ijtimoiy va qadriyat tizimlariga moslashtirilishi lozim. O'zbek jamiyatida mavjud bo'lgan an'anaviy qadriyatlar, ijtimoiy norma va stereotiplar, gender rollari va oilaviy tuzilma — bularning barchasi Yung nazariyasining mahalliy





qo'llanishiga alohida rang beradi.

Maqolada avvalo Yungning komplekslar nazariyasi o'zbek oilasidagi ota-ona bilan bog'liq ziddiyatlar orqali ochib beriladi. So'ngra psixotiplar va yoshlarning kasb tanlashi, gender stereotiplari kontekstida anima va animus, soya va persona tushunchalari, shuningdek, O'zbekiston jamiyatida individuatsiyaga to'sqinlik qiluvchi omillar ko'rib chiqiladi. Yung nazariyasining amaliy va terapevtik imkoniyatlari ham mahalliy kontekstda baholanadi.

Asosiy qism

Yungning komplekslar nazariyasi inson psixikasining markaziy tushunchalaridan biridir. Komplekslar — bu psixologik energiyaning to'planishi, ularning ichki ziddiyatlar, hissiyotlar va xotiralar bilan bog'liq bo'lgan shakllari. Ota-ona bilan bog'liq komplekslar, ayniqsa, o'zbek oilasidagi ijtimoiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonning an'anaviy jamiyatida ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha oilaning ijtimoiy va diniy qadriyatlarini, psixologik va hissiy ehtiyojlar bilan shakllanadi. Bu munosabatlarning psixologik ta'siri esa, bolalar hayotining turli bosqichlarida o'z ifodasini topadi va shaxsiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi.

Ota-ona bilan bog'liq komplekslar, asosan, bolalar ota-onalari bilan bo'lgan munosabatlardan kelib chiqadi. Yungning komplekslar nazariyasiga ko'ra, bular inson psixikasida ichki muammolar va ziddiyatlar yaratadi. Ular bolalikdagi tajribalarga asoslanadi, ota-ona ta'sirida shakllanadi va shaxsning keyingi hayoti va rivojlanishida aks etadi. Komplekslar psixologik tizimda energetik to'planish sifatida namoyon bo'lib, shaxsning psixologik holatiga va ongli qarorlar qabul qilishiga ta'sir qiladi.

O'zbek oilasida ota-ona bilan bog'liq komplekslar ko'pincha jamiyatdagi an'anaviy qadriyatlar va ijtimoiy kutishlar bilan bog'liqdir. Ota-ona o'z bolalarini ma'lum bir modelga yoki o'rnakga ko'ra tarbiyalashga harakat qiladi. Bu esa, bolalarda o'ziga xos psixologik murakkabliklarga, hatto komplekslarga olib kelishi mumkin. Ota-ona tomonidan qo'yilgan katta kutishlar, shaxsiyatdagi murakkabliklarni va ichki ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yungning komplekslar nazariyasiga ko'ra, ota-bola munosabatlari, albatta, bolalar rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ota kompleksi, shaxsning ongsiz ravishda o'zining otasiga yoki ota sifatida boshqa erkaklarga nisbatan his-tuyg'ulari va munosabatlarini anglatadi. O'zbek oilasida ota an'anaviy tarzda kuchli, hokimiyatli va tarbiya beruvchi shaxs sifatida qaraladi. Biroq, bolalar uchun bu kuchli figura o'z ichiga turli murakkabliklarni olib kelishi mumkin. Yungning fikriga ko'ra, bunday ota-bola



munosabatlari bolalarda “ota kompleksini” shakllantirishi mumkin. Bu, asosan, ota tomonidan qo‘yilgan katta kutishlar, ta‘qiqalar yoki ota bilan hissiy aloqaning yetishmasligi natijasida yuzaga keladi.

Ota kompleksi, bolalarda ichki muammolarni keltirib chiqaradi. Bu kompleks, shaxsning keyingi hayotida, masalan, erkinlikni izlash, o‘zini tasdiqlashga urinish va hatto o‘zini ota-shaxs sifatida ifodalashda namoyon bo‘lishi mumkin. Ota-bola munosabatlarida, ayniqsa, oilada kuchli muvozanatsizlik bo‘lsa, bu kompleks bolada o‘ziga ishonchsizlik va otaga bo‘lgan qattiq talablarni yuzaga keltirishi mumkin.


Ona kompleksi, Yung nazariyasiga ko‘ra, shaxsning onasiga nisbatan psixologik ta’sirlaridan kelib chiqadi. O‘zbek oilasida ona ko‘pincha oilaning markazida bo‘ladi, bolalar uning sevgisi, e’tibori va tarbiyasiga bog‘liqdir. Biroq, ota-onalar o‘rtasida yuzaga kelgan muammolar yoki onaning bolaga haddan tashqari ko‘p bo‘lgan g‘amxo‘rliqi yoki ajralishlardan so‘ng bolada ona kompleksi yuzaga kelishi mumkin.

Ona kompleksi, shaxsning keyingi hayotida onasiga bo‘lgan ichki ziddiyatlarni va qaramlikni namoyon qiladi. Agar bola onasining e’tiboriga to‘liq bog‘liq bo‘lsa, yoki onaning jismoniy yoki hissiy mavjudligi bolani haddan tashqari himoya qilgan bo‘lsa, bolada qaramlik komplekslari yuzaga kelishi mumkin. Bu holat, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik va shaxsning mustaqillikka erishishidagi qiyinchiliklarga olib keladi.

O‘zbek oilasida ota-ona bilan bog‘liq komplekslar, ko‘pincha oilaning ijtimoiy-psixologik muhitiga bog‘liq. O‘zbek jamiyatida ko‘p hollarda ota-bola va ona-bola o‘rtasidagi munosabatlar, jamiyatdagi an’anaviy qadriyatlar, me’yorlar va oilaviy normativlarga asoslanadi. Shunday qilib, komplekslar, shaxsiyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, va bu, jamiyatda qat’iy ijtimoiy kutishlar bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘zbek oilasidagi bu omillar, ayniqsa, yoshlarning o‘zligini anglash jarayonida, ijtimoiy va psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ota-ona komplekslari haqida hayotiy misollarni keltirish mumkin. Masalan, o‘zgacha intilishlarga ega bo‘lgan, ammo o‘zini otasi tomonidan to‘liq tushunilmagan bir bola o‘zini doimiy ravishda kam sezishi mumkin. Yoki ona tomonidan haddan tashqari himoyalangan bola, keyinchalik o‘zining mustaqil qarorlar qabul qilishda muammolarga duch kelishi mumkin. Bu kabi misollar, Yungning komplekslar nazariyasini haqiqiy hayotga qanday tatbiq etish mumkinligini ko‘rsatadi.

Yungning psixologik tiplash nazariyasi, shaxsning turli psixologik xususiyatlarini va harakatlarini tushunish uchun juda muhimdir. Yungning psixologik tiplash nazariyasida, odamlar ikki asosiy o‘ziga xos tipga bo‘linadi: introvert va





ekstravert. Bundan tashqari, u shaxsiyatning to'rt asosiy funksiyasini ajratadi: hissiyot, fikrlash, sezgi va intuitivlik. Kasb tanlash, o'zini anglash va shaxsiy rivojlanishda psixologik tiplashning roli juda katta. Yungning psixologik tiplariga asosan, o'z psixotipini anglash yoshlar uchun kasb tanlashda to'g'ri yo'l-yo'riq bo'lishi mumkin. Ammo, O'zbekistonda yoshlar orasida kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan psixologik muammolar, ko'pincha psixotiplarning mos kelmasligi yoki ijtimoiy cheklovlar bilan bog'liqdir.

Yungning psixologik tiplash nazariyasida, introvert va ekstravertlar ikki asosiy psixologik tipdir. Ekstravertlar odatda tashqi dunyoga qiziqadilar, ular energiyani tashqaridan oladi va insonlar bilan faol muloqotda bo'lishni afzal ko'radilar. Ular ko'pincha jamoalarda yaxshi ishlaydi va boshqalar bilan o'z fikrlarini almashishdan zavqlanadi. Boshqa tomondan, introvertlar ko'proq ichki dunyo bilan bog'liqdirlar, ular o'z his-tuyg'ulari, fikrlari va dunyoqarashlari bilan yanada chuqurroq ishlashni afzal ko'radilar. Introvertlar uchun jamoatdagi faoliyatlar va ijtimoiy uchrashuvlar ba'zan noqulay bo'lishi mumkin.

Kasb tanlashda, bu ikki tipning o'ziga xos afzalliklari va cheklovlari bor. Ekstravertlar ko'proq ijtimoiy, kommunikativ va tashqi muhitga moslashgan kasblarga mos keladi, masalan, savdo, marketing, yoki jamoatchilik bilan ishlash. Biroq, introvertlar o'zining mustaqil ishlashini afzal ko'radi va ko'proq individual faoliyatlarga yo'naltirilgan kasblarni tanlaydi, masalan, ilmiy ishlar, san'at, yoki yozuvchilik. O'zbek yoshlarining kasb tanlashida, ko'plab ijtimoiy normativlar va an'analar mavjud, bu esa ba'zida psixotiplarning to'g'ri aniqlanmasligi va yoshlarning o'zlarini anglashdagi qiyinchiliklarga olib keladi.

Biroq, O'zbek jamiyatida yoshlar o'zining psixotipini aniqlash va unga mos keladigan kasbni tanlashda ko'p hollarda qiynalishadi. An'anaviy oilaviy qadriyatlar, jamiyatdagi kutishlar va ota-onalarining ta'qib qilishlari, yoshlarni o'z psixotiplariga mos kelmagan kasblarni tanlashga undaydi. Natijada, bu yoshlarning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir qilishi, o'zini anglashda qiyinchiliklar va kasbiy qoniqishning past bo'lishiga olib keladi.

O'zbek yoshlarining kasb tanlash jarayonida muvaffaqiyatga erishishlari uchun, ularning psixologik tiplari va shaxsiy xususiyatlarini anglash juda muhimdir. Psixologik testlar, masalan, Myers-Briggs Type Indicator (MBTI) yoki boshqa psixotip tahlil metodikalari, yoshlarning o'z psixologik tiplarini aniqlashda yordam berishi mumkin. Bu testlar yordamida yoshlar o'zining introvert yoki ekstravert ekanligini, qanday funksiyalarni afzal ko'rishini aniqlashlari mumkin. Shuningdek, yoshlar




o'zining haqiqiy qiziqishlari, ehtiyojlari va iqtidorlarini aniqlashda, shaxsiy psixologik rivojlanish uchun yo'l-yo'riq olishi kerak.

Karl Gustav Yungning shaxs nazariyasi, xususan uning arxetiplar, kollektiv ongsizlik, anima va animus, persona va soya kabi asosiy tushunchalari O'zbekiston jamiyatida qo'llanilganda, bu nazariyaning samaradorligi va qamrovini belgilovchi ba'zi madaniy xususiyatlar va cheklovlar mavjud. Chunki har qanday psixologik nazariya uning ishlab chiqilgan konteksti — ya'ni Yevropa madaniyati va G'arb psixologiyasi asosidagi sharoit bilan bog'liq bo'lib, uni boshqa madaniy kontekstga qo'llashda muayyan o'zgarishlarni talab qiladi.

Birinchidan, O'zbekiston jamiyatida jamoaviylik (kollektivism) qadriyati kuchli bo'lib, shaxsning o'z individual istaklari, o'z izlanishi ko'pincha oilaviy, qabila yoki jamiyat manfaatlarini oldida ikkinchi o'ringa tushadi. Yungning nazariyasida esa insonning psixologik rivojlanish yo'li individuatsiya jarayoni — ya'ni o'zligini anglash va ichki qarama-qarshiliklarni uyg'unlashtirish orqali yakka shaxs sifatida shakllanish bilan bog'liq. O'zbek muhitida esa ko'plab hissiyotlar — g'azab, g'am, qo'rquv, noaniqlik yoki hatto quvonch — ochiq ifoda etilmaydi. Bolalikdan boshlab: “erkak yig'lamaydi”, “qiz bolasan ko'p kulma”, “yuqoriga ko'tarilish uchun his emas, aql kerak” degan qarashlar yosh ongga singdiriladi. Bu esa soya arxetipi faoliyatining kuchayishiga sabab bo'ladi — ya'ni, inson o'zining ma'lum hissiy qismlarini rad etib, ularni ongsizlikka bostiradi.

Shunday sharoitda odamlar ko'pincha bu hislarni tan olmaydi, lekin boshqalar ustidan nazorat qilish yoki hukm qilish orqali uni yashirin shaklda ifoda etadi yoki qayg'uni ochiq bildirish o'rniga, tanani kasallik orqali ifoda qilish (psixosomatik simptomlar) holatlari uchraydi. Bu holatlar Yung ta'kidlaganidek, ruhiy energiyaning noto'g'ri oqimga yo'naltirilganidan dalolat beradi. Shu sababli, jamiyatimizda individning mustaqil qaror qabul qilishi va o'z yo'lini tanlashi ko'pincha ijtimoiy bosimga, ota-onalarning ta'siriga va an'anaviy qadriyatlarga duch keladi. Bu sharoitda individuatsiya jarayonini amalga oshirish psixologik va ijtimoiy jihatdan qiyin kechadi.

Ikkinchidan, Yungning anima va animus tushunchalari erkak va ayol psixikasida qarama-qarshi jinsning obrazini anglash va integratsiya qilishga qaratilgan. Ammo O'zbekistonda gender rollari an'anaviy va qat'iy bo'lib qolgan. O'g'il bolalar ko'proq qattiqqo'llik, erkaklik sifatlarini rivojlantirishga da'vat qilinsa, qiz bolalarga esa itoatkorlik, mehribonlik va uy-ro'zg'or ishlariga moslashish qadriyat sifatida uqtiriladi. Shu sababli, yoshlarning o'z psixikasidagi qarama-qarshi jinsiy sifatlarni anglash va qabul qilish jarayoni ularning shaxsiy rivojlanishida to'siqlarga uchrashi mumkin.





Masalan, o'g'il bolaning o'zidagi emotsional sezgirlik, rahmdillik sifatlarini tan olishi "erkaklikka yaramaydi" kabi stereotiplar bilan bostiriladi.

Uchinchidan, Yungning anima va animus arxetiplari orqali inson ichida qarama-qarshi jinsga oid sifatlar mavjudligi tushuntiriladi. Bu faqat jinsiy munosabat emas, balki shaxsiy psixik muvozanat va o'zlikni anglash bilan bog'liq. Biroq O'zbek jamiyatida jinsiylik masalasi hanuzgacha tabu (taqiqlangan, gapirish mumkin bo'lmagan mavzu) hisoblanadi. Bu esa inson o'z tanasiga, ehtiyojlariga va ruhiy ehtiroslariga nisbatan begonalashuvga olib keladi.

Ota-onalar farzandlar bilan bu mavzuda ochiq gaplashmasligi, maktab darslarida jinsiy tarbiya masalalarining yetishmasligi, matbuot va ommaviy axborot vositalaridagi senzura — bularning barchasi jinsiylikni soya yoki tabu sifatida qabul qilishga olib keladi. Bunday vaziyatda inson jinsiy energiyasini tushunmaydi, uni yo bostiradi yoki salbiy shakllarda (zo'ravonlik, tajovuzkorlik, pornografik qaramlik) namoyon qiladi.

To'rtinchidan, Yungning soya tushunchasi insonning qabul qilinmagan, jamiyat tomonidan rad etilgan qirralarini anglashga yordam beradi. Ammo O'zbek jamiyatida ba'zi mavzular (psixik muammolar, shaxsiy zaifliklar, ruhiy inqirozlar) ochiq muhokama qilinmaydi va uyatli deb hisoblanadi. Bu esa shaxsning o'z soyasi bilan ishlashini qiyinlashtiradi, chunki uning o'zini tan olish jarayoni ijtimoiy stigma va tanqidga uchrashi mumkin.

Beshinchidan, kollektiv ongsizlik va arxetiplar nazariyasi o'zbek madaniyatidagi ramzlar va urf-odatlar bilan muayyan darajada mos tushsa-da, ularning mazmuni va interpretatsiyasi G'arbiy madaniyatdagidan farq qilishi mumkin. Masalan, Yungda "ona arxetipi" hayotni yaratish va parvarish qilish obraziga ega bo'lsa, o'zbek madaniyatida "ona" obrazi nafaqat mehribonlik, balki o'zini qurbon qilish, farzandlari uchun butunlay fidoyilik ramziga aylangan. Shu sababli, nazariyani qo'llashda bu ramzlarning mahalliy kontekstdagi ma'nolarini chuqur o'rganish zarur.

Shuningdek, psixologik yordam va terapiya madaniyati O'zbekistonda endigina rivojlanib borayotganligi sababli, Yungning nazariyasiga asoslangan psixoterapiya usullari (masalan, tushlarni tahlil qilish, arxetipik obrazlar bilan ishlash) ba'zi hollarda mijozlar tomonidan tushunarsiz yoki qabul qilinmaydigan bo'lishi mumkin. Bu esa Yungning yondashuvini keng miqyosda amaliy qo'llashni cheklaydi.

Karl Gustav Yungning shaxs nazariyasi O'zbekistonda qo'llanilganda, uni mahalliy madaniy xususiyatlar va qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, tushunchalarni kontekstual moslashtirish va psixologik tushuntirishlar uchun maxsus madaniy adaptatsiya qilish zarur. Shu yo'sinda nazariya samarali qo'llanilib, shaxsiy rivojlanish





va jamiyat psixologiyasi muammolarini tahlil qilishda qimmatli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yungning individuatsiya jarayoni — insonning o'z ichki imkoniyatlari, soyasi, anima-animusi va o'zligini integratsiya qilgan holda yaxlit shaxsga aylanishi — ijtimoiy bosim kuchli bo'lgan jamiyatlarda qiyin kechadi. O'zbek jamiyatida “boshqalar nima deydi?”, “gap-so'z chiqmasin”, “ota-onani uyaltirma” degan ijtimoiy bosimlar tufayli insonlar ko'pincha o'zining ichki ehtiyojlarini, orzu-umidlarini rad etadi.

Bu esa shaxsning chin o'zligiga erisha olmasligiga, tashqi kutilmalarni qondirish uchun yashashiga olib keladi. Bunday odamlar ko'pincha “bo'shliq”, “ichki ziddiyat”, “ma'nosizlik” tuyg'usiga duch keladi. Bu Yung aytganidek individuatsiya yo'liga emas, balki ruhiy parchalanish yo'liga kirish demakdir.


Xulosa

Karl Gustav Yungning analitik psixologiyasi inson ruhiyati, madaniy qatlamlar va shaxsiy o'zlikni anglash jarayonlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada Yungning asosiy tushunchalari — komplekslar, arxetiplar, kollektiv ongsizlik, psixotiplar, anima va animus, soya hamda individuatsiya — O'zbekiston ijtimoiy va madaniy kontekstida ko'rib chiqildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'zbek oilasida tarbiya, gender stereotiplari, ijtimoiy kutishlar va diniy-me'yoriy tizimlar Yung nazariyalarida tasvirlangan ruhiy dinamikalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, ota-ona bilan bog'liq komplekslar, psixotip va kasb tanlashdagi ziddiyatlar, his-tuyg'ularni bostirishga olib keluvchi madaniy bosimlar shaxsiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yung aytganidek, bu bosimlar insonni individuatsiya yo'lidan uzoqlashtiradi va ichki parchalanishga olib keladi.

Ammo, Yung nazariyalari nafaqat muammoni aniqlash, balki uni hal etish uchun amaliy yondashuvlar taklif etadi. Shaxsiy psixotipni anglash, arxetipik obrazlar bilan ishlash, soya va anima/animusni integratsiyalash orqali inson o'zini ruhiy jihatdan yaxlitlashga erishishi mumkin. O'zbekiston sharoitida bu yondashuvlar psixoterapiya katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Shu bois, Yung nazariyasini mahalliy madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llash, nafaqat shaxs, balki jamiyat ruhiy salomatligini mustahkamlashda muhim qadamlardan biri hisoblanadi.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jung, C. G. (1968). The Archetypes and the Collective Unconscious. Princeton University Press.
2. Jung, C. G. (1964). Man and His Symbols. Doubleday.
3. Jung, C. G. (1933). Modern Man in Search of a Soul. Harcourt Brace.
4. Neumann, E. (1954). The Origins and History of Consciousness. Princeton University Press.
5. Samuels, A., Shorter, B., & Plaut, F. (1986). A Critical Dictionary of Jungian Analysis. Routledge.
6. Erkinov, A. (2021). "O'zbek folklorida arxetiplar: nazariy tahlil", Toshkent Psixologik Jurnal.
7. Karimova, D. (2022). "Zamonaviy o'zbek yoshlarida identitet inqirozi", Toshkent Psixologik Jurnal.
8. Akramova, M. (2023). "Psixotiplar va kasb tanlash: o'zbek maktab o'quvchilarining psixologik portreti", O'zbekiston Pedagogik Tadqiqotlar Jurnal.
9. Tadjibaeva, S. (2022). "Gender stereotiplari va psixologik rivojlanish: o'zbek oilasida anima-animus muvozanati", Ijtimoiy Fikr va Psixologiya.
10. Jung, C. G. (1921). Psychological Types. Princeton University Press.

Research Science and
Innovation House

